ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

Folklorshunoslik

Abdumurod Tilavov

O‘zbek dostonlariga doir Turkiyadagi tadqiqotlar 147

Hulkar Aliqulova

Turkiy xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning qiyosiy tipologik tahlili 160

Ilhom Jumayev

“Qutadg‘u bilig” dostonida Kuntug‘di va O‘zg‘urmish munosabatlarining folklor motivlariga xos talqini 171

Norkulova Shaxnoza

“Boburnoma”da xalq og’zaki ijodi namunalari badiiy talqini 181

Dilorom To‘rayeva

Usmon Azim ijodida folklor namunalari va xalqona ohang **.....** 189

Mahkamova Dilafruz

“Bilga Xoqon” obrazining zamonaviy nasr va nazmda ifodalanishi .. 198

Rajabbayeva Ozoda

O‘zbek mifologiyasida “Irq bitik”ning qimmati 207

Abduraximova Nazokat

O‘zbek va turk xalqlarida nikoy to‘yi marosimi 216

Turobova Mohinur

O‘zbek laparlari va turk karshilikli manilari tadqiqi 224

ISSN 2181-922X 147— *159*

Folklorshunoslik

Folklore

O‘ZBEK DOSTONLARIGA DOIR TURKIYADAGI TADQIQOTLAR

Abdumurod Tilavov [1]

Abstrakt

O‘zbek folklori o‘zbek xalqining shonli o‘tmishi, yuksak madaniyat va ma’naviyatining badiiy ifodasidir. O‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida ibratli lavhalar mavjud. Bu ma’naviy merosimiz xorijlik olimlar tarjimonlarni ham befark qoldirmagan.

Mazkur maqolada o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari borasida qardosh Turkiyada olib borilgan tadqiqotlarning umumiy tavsifi, turkiyalik olimlarning mavzuga doir ilmiy qarashlariga o‘rin beriladi. Turkiyada professor doktor Fikret Turkman rahbarligida “Turk dunyosi bestsellerining tadqiqi, Turkiya turkchasiga o‘girilishi va nashr qilishning loyihasi doirasi amalga oshirilgan ishlar diqqatga sazovordir. Aynan shu loyiha asosida bir necha o‘zbek xalq dostonlari, jumladan, “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub o‘zbek xalq dostonlari tarjima va transkripsiyasi nashrdan chiqqan.

Maqolada shuningdek, turkiyalik folklorshunoslarning mavzuga doir xalqaro anjumanlardagi chiqishlari, jurnallarda e’lon qilgan ilmiy maqolalariga ham o‘rin beriladi.

Kalit so‘zlar: doston , Go‘ro‘g‘li, tarjima, turkiyalik folklor-

[1]*Abdumurod Tilavov* – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

E-mail: a.tilavov@mail.ru

ORCID ID: https://orcid.org/0000-0003-2367-6620

Iqtibos uchun: *Tilavov A. X. 2025. “O‘zbek dostonlariga doir Turkiyadagi tadqiqotlar”.* O‘zbekiston: til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik 2: 147 – 159. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/AYGB2531

shunoslar, mushtarak, ma’naviy xazina

O‘zbek folklorining Turkiyadagi fidoyi targ‘ibot va tadqiqotchisi Selami Fedakar 1997-yilda Mirzo Ulug‘bek nomidagi Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU)da “O‘zbek adabiyotini o‘qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumandagi nutqida quyidagi so‘zlarni aytgandi: “Turkiyada o‘zbek, umuman, turk dunyosi folklori bilan bog‘liq izlanishlar universitetlarda, shuningdek, bir necha yirik ilmiy markazlarda ulkan bir reja asosida olib borilyapti. Bu izlanishlar hozirgi o‘zbek adabiyoti, uning tarixiy bosqichlari va bugungi jarayon bilan bog‘liq ravishda tadqiq etilyapti.

Turkiyadagi universitet talabalariga folklor darslarida “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari to‘g‘risida maxsus darslar o‘qitilmoqda [Федакар Селами, 1997; 55-56].

Darhaqiqat, o‘zbek folklori, xususan, dostonlari turkiyalik tadqiqotchilarni befrq qoldirmagan va qator ilmiy tadqiqot, maqolalarga mavzu bo‘lgan. Quyida biz ana shu xususda to‘xtalamiz.

Avvalo, Rahmatulla Yusuf “dostonlarning toji” deya ta’rif bergan o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari borasidagi Turkiyada amalga oshirilgan ishlar haqida. Bu borada folklorshunos Selami Fedakarning ilmiy axborotiga tayanamiz va uni keyingi yillarda mavzuga doir qilingan ishlar bilan to‘ldiramiz. “O‘zbek “Go‘ro‘g‘li” dostoni haqida Turkiyada amalga oshirilgan tadqiqotlar” [Fedakar Selami, 2017] nomli ushbu axborot 1997-yilda 15-16-sentabr kunlari Turkiyaning Bolu shahrida o‘tkazilgan xalqaro anjuman materiallaridan o‘rin olgan.

Turkiyada o‘zbek Go‘ro‘g‘lisi haqidagi dastlabki fikrlar 1931-yilda folklorshunos Pertev Naili Boratav tomonidan ilmiy jamoatchilikka bildirildi. Olimning tadqiqoti “Go‘ro‘g‘li” dostoni rivoyatlarining tahlil va muqoyasasi – doston ta’sirlari va intishor (tarqalish, yoyilish) hududlari, dostonning manshai masalasi – dostonga oid e’lon qilinmagan hududlar” [Boratav Naıl Pertev, 1931]. deb nomlanadi. Boratav farqli turk qavmlaridagi Go‘ro‘g‘li hikoyatlarini tahlil va talqin qilgan bu ishida o‘zbek rivoyati (varianti) sifatida Mulla Hasan Mirboboo‘g‘li tomonidan 1980-yilda “Hikoyayi Go‘ro‘g‘li sulton” nomi bilan Qozonda nashr etilgan matndan foydalangan. Va asarning 16–18-betlari oralig‘ida matnning qisqacha mazmunini bergan.

Selami Fedakarning ta’kidlashicha, ushbu matn to‘la matn o‘girmasi bo‘lish bilan birga o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” dostoni haqidagi ilk ma’lumotlarni o‘z ichiga olgani uchun ahamiyatlidir [Boratav Naıl Pertev, 306].

Kuzatishlarimiz natijasida yana shu narsani aniqladikki, Pertev Naili Boratavning ana shu tadqiqotidan so‘ng Turkiyada

o‘zbek folklori tadqiqotlariga doir deyarli ish qilinmagan; uzoq yillik tanaffus O‘zbekiston mustaqilligini qo‘lga kiritgunga qadar davom etgan. Sobiq Ittifoq tarqalgach, turk olimlari turkiy jumhuriyatlarga, jumladan, O‘zbekistonga bevosita kelib, folklorga oid tadqiqotlar olib borishlariga imkon tug‘ildi. O‘zbek dostonlari, xususan, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarini O‘zbekistonga kelib o‘rgangan, tadqiqotlari natijasini Turkiyaga qaytgach, 1993-yilda “Go‘ro‘g‘li” dostonining o‘zbek rivoyati borasida bir qiyosiy tadqiqot”[Kırbaşoğlu Filiz, 1993] mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi holiga keltirgan olima Filiz Kirbashog‘ludir[1]. Olima dissertatsiyasida “Malika Ayyor”, “Mashriqo” va “Og‘a Yunusning olib qochilishi” dostonlarini lotin aifbosiga o‘girgan va tadqiqotini Propp hamda Grenmas metodlariga ko‘ra yozgan.

Keyinchalik Filiz Kirbashog‘lu mavzuni yanada kengaytirib, 2000 yilda “Go‘ro‘g‘li” dostonining o‘zbek variantlari borasida bir izlanish: “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Yunus Pari”, “Hasanxon”, “Misqol pari” “Avazxon”, “Go‘ro‘g‘lining o‘limi” (Tadqiqot, matnlar) I–II” [Kırbaşoğlu Filiz, 2000] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Olimaning “Milliy folklor” jurnalida e’lon qilingan “Go‘ro‘g‘lining o‘zbek variantlari xususida” [Kırbaşoğlu Filiz, 1997; 31-35], “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” variantlarida Go‘ro‘g‘li va G‘irotning maydonga kelishi bilan bog‘liq farqli va o‘xshash unsurlar” [Kırbaşoğlu Filiz 2017; 231-238] maqolalari ham mavzuga oid tadqiqotlardandir.

Mavzuga doir yana bir ish turk olimi Zekeriya Karadavud tomonidan 2002-yilda nashr etilgan “Go‘ro‘g‘lining maydonga chiqishi” kitobidir [Karadavut Zekeriya 2002; 426]. Kitob tadqiqot va matn qismlaridan iborat. Tadqiqotda “Go‘ro‘g‘li” dostonning bir necha variant va versiyalari qiyosiy tahlil etiladi. Olim tahlil uchun o‘zbek versiyasi sifatida ustoz Malik Murodov nashrga tayyorlagan [Гўрўғлининг туғилиши. Тузувчи: Малик Муродов, 1967; 448] va 1967-yilda nashr etilgan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” kitobidagi matnni asos qilib olgan.

Zekeriya Karadavut kitobining “Matnlar” qismida “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” (O‘zbekiston varianti)” sarlavhasi ostida dostonning kirill yozuvidagi bir parchasini namuna tariqasida lotin yozuviga o‘girgan. Bu, albatta, turk o‘quvchilari dostonning asliyatdagi usul, ohangdan bahramand bo‘lishini istab qilingan. Diqqatga sazovor jihati shundan iboratki, kitobning 235–393-betlari matnning turkchaga qilingan tarjimasiga ajratilgan.

[1]Олиманинг Ўзбекистонга ташрифи чоғида ўзбек достонлари борасида олиб бораётган тадқиқотлари билан яқиндан танишган ва ҳамкорликда иш юритган эдик. – А. Т.

O‘zbek “Go‘ro‘g‘li”sini Turkiyada matniy tadqiq qilgan turk folklorshunoslaridan yana biri Ayxan Chelikbaydir. Olim Anqara universiteti Ijtimoiy fanlar institutida 2000 yilda “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni – O‘zbek varianti (Tahlil – Matn – Tarjima – Indeks – Ilova)” mavzusidagi magistrlik dessertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Garchi ish magistrlik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan bo‘lsa-da, uning salmog‘i ancha baland.

Ayxan Chelikbay o‘zbek baxshisi Rahmatulla Yusuf kuylagan, To‘ra Mirzaev va Zubayda Husainovalar tomonidan nashrga tayyorlab, 1996 yilda nashr etilgan [Гўрўғлининг туғилиши. Достон. Айтувчи: Раҳматилла Юсуф, 1996] doston matnini til nuqtai nazaridan tadqiq etgan. Ishda quyidagilar amalga oshirilgan:

1) dostonning o‘zbekcha matni transkripsiya qilingan (105–231-betlar);

2) turkchaga tarjima qilingan;

3) ilovada dostonning kirill yozuvidagi matni to‘liq keltirilgan (626–819-betlar);

4) indeks ilova qilingan.

Antologiyalar adabiyot, san’at namunalarini, umuman, ma’naviy merosni xalqqa yetkazish borasidagi katta ilmiy, ijodiy, ma’rifiy xizmatdir. O‘zbek folklor janrlari, xususan, dostonlarimizning Turkiyadagi antologiyalardan joy olganligi quvonarli hodisadir.

Turkiya Jumhuriyati Madaniyat Vazirligi tomonidan nashr qilingan ko‘p jildlik “Turkiyadan tashqaridagi Turk adabiyotlari antologiyasi”[Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi 2000] ning 14, 15, va 16-jildlari o‘zbek adabiyotiga ajratilgan. Antologiyaning “O‘zbek adabiyoti – 1” nomli 14-jildidan “Hasanxon” (Aytuvchi: Po‘lkan shoir; nashrga tayyorlovchi: Oxunjon Safarov; antologiya, 191–202-betlar); “Misqol pari” (Aytuvchi: Po‘lkan shoir; tayyorlovchilar: Muhammad Saidov, Zubayda Husainova; antologiya, 202–222b); “Avazxon” Aytuvchi: Po‘lkan shoir; tayyorlovchilar: Muhammadnodir Saidov, Zubayda Husainova; antologiya, 224–234-betlar) va “Chambil qamali” (Aytuvchi: Po‘lkan shoir; tayyorlovchilar: Muhammadnodir Saidov, Zubayda Husainova; antologiya, 235–244-betlar) dostonlaridan parchalar keltirilgan. Antologiyadan joy olgan doston parchalarining hammasi Ridvan O‘zturk tomonidan lotin harflariga o‘girilgan va turkchaga tarjima qilingan. Bundan tashqari, antologiyaning “O‘zbek adabiyoti – III” nomli 16-jildidagi “O‘zbek baxshilari ijodi” bo‘limida Jo‘ra Eshmirza o‘g‘li kuylagan “Malla savdogar” dostoni Filiz Kirbasho‘g‘li tomonidan

lotin harflariga va turk tiliga o‘girilgan.

Turk folklorshunosi Metin Ekijining “Turk dunyosida Go‘ro‘g‘li (Ilk shajara)” [Ekici Metin 2004] nomli kitobi o‘zbek “Go‘ro‘g‘lisi”ning tahlil va talqini hamda matnining nashri borasidagi navbatdagi ishlardandir.

Kitobda olim Rahmatulla Yusuf kuylagan, To‘ra Mirzaev va Zubayda Husainovalar tomonidan nashrga tayyorlangan “Go‘ro‘g‘li dostonlari 1: Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” [Гўрўғлининг туғилиши. Достон. Айтувчи: Раҳматилла Юсуф] dan foydalangan. Kitobning “O‘zbekiston turklari versiyasi” bo‘limida ushbu doston matnining turkchaga o‘girilgan matniga o‘rin berilgan.

Folklorshunos Selami Fedakarning fikricha, Turkiyada turk dostonlari va xususan, turkiy xalqlardagi “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar matnlari e’lon qilingan eng muhim loyiha professor, doktor Fikrat Turkman rahbarligidagi “Turk dunyosi dostonlarining tadqiqi, Turkiya turkchasiga o‘girilishi va nashr qilinishi” loyihasidir [Fedakar Selami 308].

Shuni ham ma’lumot sifatida qayd etish kerakki, loyiha doirasida turkiy xalqlarga oid 50 dan oshiq dostonlar turk o‘quvchilariga yetkazildi. “O‘zbek dostonlari” seriyasida nashr etilgan olti o‘zbek xalq dostonining uchtasi (“Malika ayyor”, “Xushkeldi”, “Balogardon”) shu turkumga mansub dostonlardan. O‘zbek dostonlari haqidagi ilmiy maqolalar va ilmiy anjumanlardagi ma’ruzalar ham o‘zbek folklorining qardosh turk ilmiy jamoatchiligini, umuman, folklor ixlosmandlarini bu boradagi ehtiyojini qarshilagan omillardan biridir.

Masalan, Filiz Kirbasho‘g‘lining 2017-yil Otaturk universiteti Adabiyot fakulteti Ijtimoiy fanlar jurnalida “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” variantlarida Go‘ro‘g‘li va G‘irotning maydonga chiqishi bilan bog‘liq farqli va o‘xshash unsurlar” [Kirbaşoğlu Filiz 2017; 233] maqolasini e’lon qildi.

Maqolada O‘zbekiston va Onado‘lida Go‘ro‘g‘li (Ko‘ro‘g‘li) bilan bog‘liq hikoyat va dostonlardagi Go‘ro‘g‘li va oti bilan bog‘liq jihatlar har ikki tomondagi matnlar asosida qiyoslangan.

Maqolada keltirilgan muhim xulosalardan biri – farqli jo‘g‘rofik hududlardagi ikki qarash o‘rtasida ba’zi tafovutlar ko‘rinsa-da, tamalda mavjud umumturk madaniyati yo‘qolmagan; bor bo‘yi bilan namoyon bo‘lmoqda. Maqola muallifining qayd etishicha, “Onado‘liga oid doston varianti qisqa, o‘zbek varianti esa ancha uzun... Har ikki dostonda ham avvalo, qahramonning oilasi haqida ma’lumot beriladi. “Ko‘ro‘g‘lining zuhuri” versiyasida dastlab Urushan (Ürüşen) Boboga duch kelamiz. Urushan Bobo Bolu beylarining yonida xizmat qilgan to‘g‘ri, durust, ishining ustasi bir otboqardir” [Kirbaşoğlu Filiz 2017; 233].

Maqolada har ikkala dostondagi asosiy qahramonlardan biri – sinchi obrazi haqida qiziq ma'lumotlar keltiradi: "Go'ro'g'li"ning turk versiyasida Bolu beylari Urushan Bobodan tengi yo'q ot topib kelishni so'rashadi... Urushan Bobo-sayis-otlarni yaxshi ajratadi va Bolu beyining yonida xizmat qiladi, ya'ni u oddiy xalqdan biridir. Vaholanki, o'zbek variantida (versiyasida deyish to'g'riroq edi, bizningcha. – A. T.) asilzodalik, sultonlik muhim".

Darhaqiqat, dostonlardagi sinchi (Soqibulbul) bosh qahramon darajasiga ko'tarilgan obraz ekani, ular ma'naviy martaba jihatidan dostonlarda tilga olingan eranlardan qolishmasligi borasida folklorshunoslarimiz tomonidan qimmatli fikrlar aytilgan. Bu borada xalqimiz orasida mashhur rivoyatlar zamirida ham ma'lum haqiqat, aniqrog'i, dostondagi bu obraz mavqeini asoslovchi dalillar bor. Bu o'rinda Sohibqiron Amir Temur va uning miroxo'ri haqidagi rivoyatni yana bir bor eslash foydadan xoli bo'lmaydi. Rivoyatda keltirilishicha, Amir Temur ma'naviy ustozidan muhim bir safar uchun duo so'raydi. Ustoz esa bu ishga boshqa bir zot loyiqligi, uni tog' tepasidagi buloq yonida bomdod namozida uchratishini aytadi. Ana shu zot Amir Temurga necha yillardan buyon xizmat qilib yurgan miroxo'r – otboqar bo'lib chiqadi[Turdimov].

Sinchi – o'z maslagiga sadoqatli, fidoyi shaxs. U haqiqatni aytishda o'z jonini ham ayamaydigan inson. Maqolada Filiz Kirbasho'g'li bu xusus o'zbek variantida bo'lgani kabi turk variantida ham badiiy ifodasini topganligiga diqqat qaratadi. Onado'li (turk) versiyasidagi manbadan o'qib bilishimizcha, Urushan Bobo yaxshi ot topish uchun kezadi. Terjen dashtlarida ikki toy ko'rib, sotib oladi. Biroq toylar ko'rimsiz edi. Aslida bu toylar suv manshali (aslli) edilar. Urushan Bobo ularni ko'rishi bilan darhol payqagandi. Ammo Beylar Urushan Boboga gapirishga imkon berishmaydi. Bizning ustimizdan kulyapti, deb o'ylab, uning ko'zlariga mil tortib, ko'r qilishadi. Shu kungacha qilgan xizmatlari evaziga ikki ot berib uni uyiga jo'natishadi [Köroğlu'nun Meydana Çıkışı, 2000].

Maqolada dostonning turk versiyalaridagi Qirot va o'zbek "Go'ro'g'li"sidagi G'irot obrazlari qiyoslanib, yaxshi xulosalar taqdim etilgan: "...Ko'rinib turibdiki, o'zbek variantida Go'ro'g'li bilan Qirot o'rtasida har ikkisining ham uchinchi nasl bo'lgani tufayli o'ziga xos o'xshashliklar o'rtaga chiqmoqda. Bir kuni Qirotning oyog'ini it tishlagach, Xizr uni yashirincha olib qochib, o'zi qaraydi. Go'ro'g'li otni qidirib, topolmaydi. Uyquga cho'madi. Tushida nuroniy bir jamoa uni o'rab oladi. Oti topilishi, dushmanlaridan intiqom olishi, uylanajagi parilar haqida aytishadi. Ko'ro'g'li (Go'ro'g'li)ning Zuhur tarmog'ida tush motiviga duch kelmaymiz. Uylanishiga doir ham biror ishora yo'q"[Kirbasho'g'li, 236].

Turkiyalik folklorshunoslarning o'zbek dostonlari, xususan,

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari haqidagi izlanishlarni shartli ravishda ikki yo‘nalishga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Birinchi yo‘nalish – bevosita biror doston tahlil va talqiniga doir izlanishlar.

Ikkinchi yo‘nalish umumturk epos haqida fikr yuritib, ayrim o‘rinlarda o‘zbek eposlarini qiyosiy tahlilga tortib amalga oshirilgan tadqiqotlar.

Folklorshunos Dursun Yildirim 1983 yilda o‘tkazilgan “Go‘ro‘g‘li seminari” (“Köroğlu Semineri”) [Yıldırım 1983; 103-114] da “Go‘ro‘g‘lining O‘rta Osiyo rivoyatlari” mavzusidagi ilmiy ma’ruza bilan ishtirok etgan. Mazkur mavzu keyinchalik (1989 yilda) fakt va manbalar bilan to‘ldirilib “Milliy folklor” jurnalida xuddi shu sarlavha ostida maqola tarzida e’lon qilindi[Yıldırım Dursun 1989; 10].

Maqola avvalida muallif Go‘ro‘g‘li dostoni “Turk dunyosi va turklar bilan uzoq yillar birga yashagan xalqlar hayotida dostoniy asar bo‘lish bilan birga, yelkasida moziyni tashiyotgan obidaviy qiymatga molik meros ekaniga urg‘u beradi. Muallif to‘g‘ri ta’kidlaganidek, dunyo tamadduni tarixida ahamiyatini yo‘qotmagan bunday muhtasham asar uchramaydi. “Buning sababi – deydi Yildirim Dursun – turk doston ijrochilik an’anasining mukammalligi va o‘ziga xos maktab saviyasiga erishgan, shuningdek, “Go‘ro‘g‘li” dostonining maxsus ijro mavjudligidadir, bizningcha”[Yıldırım Dursun 1989; 83-90].

Fikrat Turkman ustozning 1983 yilda “Go‘ro‘g‘li seminari”da taqdim etgan “Go‘ro‘g‘lining o‘zbek va arman variantlari”[Kirbasho‘g‘li 236] ma’ruzasi o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari tahlilga tortilgan dastlabki tadqiqotlardandir. Olim ma’ruzasida Go‘ro‘g‘lining g‘arb anglatimlaridan (variantlaridan) farqini ko‘rsatish uchun “Go‘ro‘g‘li” dostoni, ayniqsa, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining qisqacha mazmunini keltiradi. Ma’ruza davomida dostondagi mavzu, qahramonlar va boshqa unsurlar, Go‘ro‘g‘lining g‘arb anglatimlaridan farqli jihatlari aniq misollar yordamida ko‘rsatilgan.

Shu o‘rinda “Turkiya Diyonat Vaqfi” qomusidagi muhim bir ma’lumotga diqqat qaratishni o‘rinli deb bilamiz. Ma’lumki, Go‘ro‘g‘lining shaxsiyati kelib chiqishi nasl-nasabi haqida ilmiy jamoatchilik orasida turli bahs munozalar, hatto, asossiz iddaolar bor. Qomusdagi quyidagi iqtibos shu masalaga birmuncha oydinlik kiritishi nuqtai nazaridan muhimdir: “Qayerdan ekani aniq ma’lum bo‘lmagan, hikoyalarida ham bu borada ochiq ma’lumot berilmagan. Ko‘ro‘g‘lining (Go‘ro‘g‘lining) Sharqiy Onado‘li – Ozariy rivoyatining ilk bo‘g‘inida tilga olingan “Naslimizni Murod Xonli degaylar” misrasi ham tasdiqlanmoqda.

Hazarorti turkman rivoyatida Go‘ro‘g‘lining bu turkmanlarga mansub Taka (takaturkman urug‘i nazarda tutilayotgan bo‘lsa ajab

emas. – A. T.) bilishadi [Turdomov 2023].

Ignasiz Kunos (Igncāz Kūnos) va Gyula Meszaros (Gyula Meszāros)lar ham Chadzkoning fikrlariga qo‘shilib Go‘ro‘g‘li Onado‘li xalq adabiyotiga Erondan o‘tganligini aytadilar. Bu noto‘g‘ri qarash g‘arblik olimlar tomonidan yaqin yillargacha targ‘ib va tashviq qilindi.

Aleksandr H. Krappe (Alexendre H. Krappe) hikoyalar Eronga tegishli ekanini iddao etarkan, Kavkaz hududiga tegishli ekanini da’vo qilgan...”[Faruk Sümer]

“Har qanday folklor asari namunasi bu – milliy qadriyatlar namunasidir. Xalq og‘zaki ijodining eng kichik janri maqoldan tortib to epik hajmga ega bo‘lgan dostongacha barcha-barchasigacha milliy qadriyatlar o‘ziga xos tarzda aks etganini ko‘ramiz”[Jo‘rayev, Eshonqulov 2017].

Bas, shunday ekan, bir etnosga mansub epos va uning bosh qahramonini “millatini o‘zgartirib” talqin va targ‘ib qilish – masalaga noxolis yondashish va ilmiy etikaga xos emas.

O‘zbek “Go‘ro‘g‘li” dostoni haqida keyingi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyasi turk olimasi Esra Bilge Savjiga oiddir. Ish 2016 yilda G‘oziy universiteti ijtimoiy fanlar institutida himoya qilindi. Dissertatsiya mavzusi “Go‘ro‘g‘li” dostoni “Hikoyati Go‘ro‘g‘li Sulton”.

Esra Bilge bu tadqiqotida Petrov Naili Baratav tomonidan Turkiyadagi ilmiy taomilga kiritilgan; Mulla Hasan Mirbobo o‘g‘li tomonidan Chig‘atoy lahjasida yozuvga ko‘chirilgan “Hikoyati Go‘ro‘g‘li Sulton” matnini bir necha aspektda tahlil etgan. Mazkur matnning shu mavzudagi boshqa variant va versiyalardan farqli va nisbatan mukammalligi, Go‘ro‘g‘lining “xon o‘g‘li xon va bey (bek) o‘g‘li bey” naslidanligi, hikoyatning tarqalish jug‘rofik hududi ancha kengligi asoslangan.

Olima mazkur dissertatsiyasini 420 betdan iborat kitob holida ham nashr ettirgan [Hikayet-i Köroğlu Sultan 2023; 420].

“Turk adabiyoti asarlar so‘zligi (lug‘ati)” elektron saytida Esra Bilge tomonidan tayyorlangan “Go‘ro‘g‘li Sulton” (O‘zbek rivoyati) moddasiga o‘rin berilgan [Bizningcha, bu o‘zakda “Kahraman” yoki “Kahramanımız” so‘zi ishlatilishi kerak edi.]. Olima Go‘ro‘g‘li Sulton haqidagi asosiy ma’lumotlarni sodda muxtasar tarzda taqdim etadi: “Kahramanın (Köroğlu Sultan, Kırk yaşına geldiğinde Hızır Aleyhisselam, Kırk Çihilten [Kırk Çihilten – Turk tilida “chiltan”larga nisbatan “kırklar” so‘zi ishlatiladi. “Bu mativ “Qirqta chiltan” ma’nosi anglashiladi]. ve Oniki İmam onun yanına gelirler. Kendilerinden bir isteği varsa dilemesini ve Allah’a sığınıp bu dileşi için duacı olacaklarını söylerler. Köroğlu Sultan, Kaf Dağından padişahın kızı Ağa Yunus Peri, İrem Bağından Gülnar Peri ve Hindistan’dan Miskal Peri isim-

lerinde üç peri kızı ile yevlenir. Bunun dışında dokuz tane insan yeşi de bulunmaktadır. Ancak Köroğlu Sultan’ın çocuğu olmaz. Bundan dolayı Isfahan’dan Holdar’ın oğlu olan Hasan’ı kaçırır ve onu yevlatedinir” [Kırk Çihilten].

Tarjimasi: “Qahramon Go‘ro‘g‘li Sulton qirq yoshga to‘lganda Xizr alayhissalom, chilton va o‘n ikki imom uning yoniga keladilar. Biror tilagi bo‘lsa so‘rashini, ular Allohga yukinib bu istak qabul bo‘lishini so‘rab duo qilishlarini aytadilar. Go‘ro‘g‘li Sulton Qof tog‘idan podshohining qizi Og‘a Yunus Pari, Eram bog‘idan Gulnor Pari va Hindistondan Misqol Pari ismli uch pariga uylanadi. Bundan tashqari insonlardan to‘qqizta turmush o‘rtog‘i bor. Biroq Go‘ro‘g‘li Sulton farzandsiz. Shuning uchun Isfahondan Xoldorning o‘g‘li Hasanni olib qochadi va farzand qilib oladi” (Tarjima bizdan – A. T.).

Shu o‘rinda bir mulohaza: “Go‘ro‘g‘li” dostoni genezisi, Go‘ro‘g‘li shaxsiyati haqida o‘zbek folklorshunoslari tomonilan ham qiymatli chuqur tadqiqotlar amalga oshirilgan [Turdimov 2015]. Biroq ularning birortasida Go‘ro‘g‘lining parilardan tashqari yana to‘qqizta ayoli borligiga doir biror qayd uchratmadik. Garchi Chig‘atoychaga ko‘chirilgan matnda shunday o‘rin uchragani taqdirda ham uni, avvalo, chuqur izlanish natijasida aniqlashtirish, eng maqbuli oddiy dostonxonlar o‘rtasida turli tushunmovchiliklar tug‘dirishi mumkinligini inobatga olmaslik lozim edi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub o‘zbek dostonlariga doir Turkiyadagi ishlar – turkumga doxil ayrim dostonlarning turkcha nashri va turk “Ko‘ro‘g‘li”si bilan qiyosiy aspektda o‘rganilgan ilmiy maqolalardan iborat bo‘lib, bu tadqiqotlar ikki qardosh xalqning mushtarak ma’naviy xazinasi haqidagi bilimlarimizni oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

Федакар Селами. Ўзбек фольклорининг Туркияда ўрганилишига доир илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент: “Университет”, 1997. – Б. 55-56.

Fedakar Selami. Özbek Köroğlu Destanı Hakkında Türkiye’de Yapılan Çalışmalar. Bolu’dan Türk Dünyasına; Köroğlu Çalışmalarının Dünü, Yarını Uluslararası çalıştayı. Bolu, 15-16 Eylül 2017.

Boratav Naıl Pertev. Özbek Rivayetleri. Köroğlu Destanı (Rivayetlerin Tahlil ve Mukayesesi – Destanın Tesirleri ve İntişar Sahası – Destanın Menşei Meselesi – Destana ait Neşrolunmamış Metinler). İstanbul: Evkaf Matbaası, 1931.

Kırbaşoğlu Filiz. ‘Köröğlü Destanı’nın Özbek Rivayeti Üzeri-

ne Karşılaştırmalı Bir Çalışma. Yüksek Lisans Tezi, Erzurum: Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1993.

Kırbaşoğlu Filiz. 'Köröğlü Destanı'nın Özbek Varyantları Üzerine Bir Araştırma, Göroğlu'nun Doğoşu, Yunus Peri, Hasanhan, Miskal Peri, Avazhan, Göroğlu'nun ölümü (İnceleme – metinler) I – II. Doktora Tezi. Erzurum: Atatürk Üniversitesi, 2000.

Kırbaşoğlu Filiz. 'Köröğlü Destanı'nın Özbek Varyantları Üzerine Bir İnceleme. Milli Foklor, Sayı: 33. – 1997. – S. 31 – 35.

Karadavut Zekeriya. "Göroğlinin Doğuşu", Köroğlu'nun Ortaya Çıkışı, Bişkek: Manas Üniversitesi Yayınları, 2002. – S. 426.

Kırbaşoğlu Filiz. 'Köröğlü'nun Doğuşu Varyantlarında Köroğlu ve Kırat'ın Ortaya Çıkışıyla İlgili Farklı ve Benzer Unsurlar. Atatürk Üniversitesi, Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi. 2017, S. 589 Haziran. – S. 231-238.

Гўрўғлининг туғилиши. Достон. Халқ оғзаки ижоди. Тузувчи: Малик Муродов. – Тошкент: "Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – 448 б.

Гўрўғлининг туғилиши. Достон. Айтувчи: Раҳматилла Юсуф. Нашрга тайёрловчилар: Тўра Мирзаев, Зубайда Ҳусаинова. – Тошкент. – 1996.

Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları: 2000.

Ekici Metin. "Özbekistan Türkleri Versiyonu". Türk Dünyasıda Köroğlu (İlk Kol). Ankara: Akçağ Yayınları, 2004.

Гўрўғлининг туғилиши. Достон. Айтувчи: Раҳматилла Юсуф, нашрга тайёрловчилар: Т. Мирзаев, З. Ҳусаинова. – Тошкент. – 1976.

Kirbaşoğlu Filiz. Köroğlu'nun Doğuşu Varyantlarında Kırat'ın Ortaya Çıkışıyla İlgili Farklı ve Benzeri Unsurlar. Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Sosyal Dergisi / Journal of Social Sciences. Sayı 58. Haziran / 2017. – S. 231-238.

Турдимов Ш. Ҳикмат хазинаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 108-110.

Köroğlu'nun Meydana Çıkışı. İstanbul. – 2000.

Yıldırım D. "Köroğlu'nun Orta Asya Rivayetleri" Köroğlu Seminerileri. Ankara: Başbakanlık Basımevi, 1983. – S. 103-114.

Yıldırım Dursun. "Köroğlu'nun Orta Asya Rivayetleri", Milli Folklor, 1989. – S. 10–11.

Türkmen Fikret. "Köroğlu'nun Özbek Ermeni Varyantları". Köroğlu Semineri Bildirileri. Ankara: Başbakanlık Basımevi. – S. 83-90.

Турдимов Ш. Ўзбек мифологияси ва фольклори. – Тошкент: Ilm va fan, 2023. – Б. 251–252.

Faruk Sümer, Nurettin Albayrak. Köroğlu. Türkiye Diyanet

Vakfı İslam Ansiklopedisi. – S. 55.

Жўраев М., Эшонқулов Ж. Фольклоршуносликка кириш / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Barkamol fayz media, 2017. – Б. 136.

Hikayet-i Köroğlu Sultan. Esra Bilge Savcı. İstanbul. – 2023. – 420 s.

Турдимов Ш. “Гўрўғли” достонининг генезиси. – Тошкент: Фан, 2001; Шу муаллиф. Эпос ва этнос. – Тошкент: Фан, 2015.

TURKISH RESEARCH ON UZBEK HEROIC EPICS (DASTANS)

Abdumurod Tilavov[1]

Abstract

Uzbek folklore is an artistic expression of the glorious past, high culture and spirituality of the Uzbek people. The Uzbek dastans of the Goroghli cycle contain exemplary scenes of profound moral value. This spiritual heritage has also attracted the keen interest of foreign scholars and translators.

The present article offers a general overview of the research conducted in fraternal Turkey on the Uzbek Goroghli cycle of dastans and highlights the scholarly views of Turkish researchers on the subject.

Particularly noteworthy are the works carried out under the project directed by Prof. Dr. Fikret Türkmen entitled “Research, Translation into Turkey Turkish, and Publication of Masterpieces of the Turkic World”. Within the framework of this very project, several Uzbek folk dastans – including those belonging to the Goroghli cycle – have been published in transcription and Turkish translation.

The article also discusses the contributions of Turkish folklorists at international conferences and the scientific articles they have published in journals on this topic.

[1] *Abdimurod Tilavov* – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor. Alisher Navoi Tashkent state university of Uzbek language and literature

E-mail: a.tilavov@mail.ru

ORCID ID: https://orcid.org/0000-0003-2367-6620

For citation: *Tilavov A.X. 2025. “Turkish Research on Uzbek Heroic Epics (Dastans)”*. Uzbekistan: language and culture. Folklore. Linguistics 2: 147 –159. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/AYGB2531

Key words: dastan, Goroghli, translation, Turkish folklorists, common heritage, spiritual treasury

References

Федакар Селами. Ўзбек фольклорининг Туркияда ўрганилишига доир илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент: “Университет”, 1997. – Б. 55-56.

Fedakar Selami. Özbek Köroğlu Destanı Hakkında Türkiye’de Yapılan Çalışmalar. Bolu’dan Türk Dünyasına; Köroğlu Çalışmalarının Dünü, Yarını Uluslararası çalıştayı. Bolu, 15-16 Eylül 2017.

Boratav Naıl Pertev. Özbek Rivayetleri. Köroğlu Destanı (Rivayetlerin Tahlil ve Mukayesesi – Destanın Tesirleri ve İntişar Sahası – Destanın Menşei Meselesi – Destana ait Neşrolunmamış Metinler). İstanbul: Evkaf Matbaası, 1931.

Kırbaşoğlu Filiz. ‘Köröğlü Destanı’nın Özbek Rivayeti Üzerine Karşılaştırmalı Bir Çalışma. Yüksek Lisans Tezi, Erzurum: Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1993.

Kırbaşoğlu Filiz. ‘Köröğlü Destanı’nın Özbek Varyantları Üzerine Bir Araştırma, Göroğlu’nun Doğoşu, Yunus Peri, Hasanhan, Miskal Peri, Avazhan, Göroğlu’nun ölümü (İnceleme – metinler) I – II. Doktora Tezi. Erzurum: Atatürk Üniversitesi, 2000.

Kırbaşoğlu Filiz. ‘Köröğlü Destanı’nın Özbek Varyantları Üzerine Bir İnceleme. Milli Foklor, Sayı: 33. – 1997. – S. 31 – 35.

Karadavut Zekeriya. “Göroğlinin Doğuşu”, Köroğlu’nun Ortaya Çıkışı, Bişkek: Manas Üniversitesi Yayınları, 2002. – S. 426.

Kırbaşoğlu Filiz. ‘Köröğlü’nun Doğuşu Varyantlarında Köroğlu ve Kırat’ın Ortaya Çıkışıyla İlgili Farklı ve Benzer Unsurlar. Atatürk Üniversitesi, Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi. 2017, S. 589 Haziran. – S. 231-238.

Гўрўғлининг туғилиши. Достон. Халқ оғзаки ижоди. Тузувчи: Малик Муродов. – Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – 448 б.

Гўрўғлининг туғилиши. Достон. Айтувчи: Раҳматилла Юсуф. Нашрга тайёрловчилар: Тўра Мирзаев, Зубайда Ҳусаинова. – Тошкент. – 1996.

Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları: 2000.

Ekici Metin. “Özbekistan Türkleri Versiyonu”. Türk Dünyasıda Köroğlu (İlk Kol). Ankara: Akçağ Yayınları, 2004.

Гўрўғлининг туғилиши. Достон. Айтувчи: Раҳматилла Юсуф, нашрга тайёрловчилар: Т. Мирзаев, З. Ҳусаинова. – Тошкент. – 1976.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com